

INSON SALOMATLIGINI TIKLASHDA SHIFOBAXSH O‘SIMLIKLARNING ROLI

*Andijon qishloq xo‘jaligi va agrotexnologiyalar instituti
o‘simliklarini himoya qilish kafedrası
dotsent Omonova Nargiza*

*katta o‘qituvchisi Siddikova Nodira,
assistenti Mirzaitova Muqaddam*

Аннотация: *Ushbu maqolada xalq tabobatida inson organizmiga ijobiy ta’sir etuvchi, biologik faol moddalarga ega bo‘lgan o‘simliklar keng ishlatiladi, asosan dorivor mahsulotlar sifatida o‘simliklarning ildizi, bargi, po‘stlog‘i, guli, mevasi va boshqa qismlaridan foydalaniladi, yetishtirish, zararli organizmlarni aniqlash usullari ahamiyati kabi haqida so‘z yuritilgan.*

Калит so‘zlar: *qora qorag‘at, oltinsimon qorag‘at, tur, nav zararli organizmlar, virusli kasallik aniqlash.*

Аннотация: *В данной статье речь идёт о растениях с биологически активными веществами, оказывающими положительное влияние на организм человека, широко используются в народной медицине, в основном в качестве лекарственных средств используются корни, листья, кора, светки, плоды и другие части растений, далее выращивание, изучение о вредных организмов: методы диагностики .*

Ключевые слова: *смородина черная, смородина золотистая, вид, сорт, вредоносные организмы, выявление вирусных заболеваний.*

Annotation: *In this article we are talking about plants with biologically active substances that have a positive effect on the human body, are widely used in folk*

medicine, mainly roots, leaves, bark, flowers, fruits and other parts of plants are used as medicines, then cultivation , the study of pests: methods of diagnosis.

Key words: *black currant, golden currant, type, variety, harmful organisms, detection of viral diseases.*

Insonlar salomatligini tiklashda shifobaxsh o‘simliklarning roli beqiyosdir. Dorivor o‘simliklar xalq tabobatida qadimdan turli kasalliklarni davolashda keng miqyosda qo‘llanib kelingan shifobaxsh vositadir. O‘simlik xom-ashyolaridan tayyorlangan dori-darmonlarga bo‘lgan talab yildan-yilga ortib bormoqda.

Xozirgi kunda qishloq xo‘jaligi o‘simliklarining virusli kasalliklariga qarshi samarali kurashish va fitoviruslarga qarshi biotexnologiyalarni joriy etish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 25-noyabrdagi “Biotexnologiyalarni rivojlantirish va mamlakatning biologik xavfsizligi tizimini takomillashtirish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 11 dekabrdagi PQ-4549-son Meva-sabzavotchilik va uzumchilik tarmog‘ini yanada rivojlantirish, sohada qo‘shilgan qiymat zanjirini yaratishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risidagi qarori ijrosini ta‘minlash maqsadida meva-sabzavot va uzumchilik sohasida yuqori qo‘shilgan qiymatli mahsulotlar ishlab chiqarish, eksport hajmini oshirish, global iqlim o‘zgarishi sharoitida O‘zbekiston Respublikasida qishloq xo‘jaligi ekinlarining xavfli kasalliklarini keltirib chiqaruvchi fitopatogen viruslarni aniqlash va ularning turli hududlarda tarqalish hududlarini o‘rganish, monitoring qilish, diagnostika usullarini ishlab chiqish kabi dolzarb masalalar belgilab berilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2030 yil 6 oktabrdagi “O‘zbekiston Respublikasida o‘rmon xo‘jaligi tizimini rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” gi PQ-4850 sonli qarorida o‘rmon fondi yerlarida ekoturizmni rivojlantirish, yog‘och, dorivor va boshqa turdagi import o‘rnini bosuvchi, eksportbop

mahsulotlarni ishlab chiqarish ishlarini keng yo'lga qo'yish maqsadida 2021-2030 yillarda o'rmon xo'jaliklarida dorivor va ozuqabop o'simliklarni yetishtirish va tayyorlash hajmining prognoz ko'rsatkichlari (10-ilova) bo'yicha Respublikada jami 337 gektar maydonda 1160 tonna qorag'at va malina yetishtirish va tayyorlash, jumladan, Andijon viloyatida 20 gektar maydonda jami 42 tonna, Toshkent viloyatida 112 gektar maydonda 317 tonna qorag'at va malina yetishtirish vazifasi belgilangan.

Qorag'at toshyorargullilar (saxifragaceae) oilasining *Ribes* turiga mansubdir. Ribes turini seleksiyalarga bo'lish xarakati XIX asrning yigirmanchi yillarida boshlangan.

FAO 2020 yildagi statistik ma'lumotiga ko'ra dunyo bo'yicha qorag'at 655 ming tonna yetishtirilgan bo'lib o'rtacha hosildorlik 5,5 t/ga ni tashkil etgan. Dunyo bo'yicha ekin maydoni esa 120,8 ming gektarni tashkil etadi. Qorag'at yetishtirish bo'yicha rossiya federatsiyasi birinchi o'rinda bo'lib 395 ming tonna, polsha davlati 166 ming tonna, ukraina davlati 24 ming tonna, boshqa davlatlarda esa jami 70 ming tonnani tashkil qiladi. 2018 yilda o'zbekistonda qorag'at 1300 tonna mahsulot yetishtirildi

O'zbekistonda qorag'atning qopa, oltinsimon, qizil, oq va pensilvan kabi turlari ko'p uchraydi. Shulardan oltinsimon qorag'at (*ribes aureum* pursh) turi O'zbekiston tuproq iqlim sharoitigi juda mosligi sababli keng tarqalgan.

Qorag'at o'simligi dunoda keng tarqalgan qadimiy shifobaxsh rezavor meva turlaridan biri hisoblanadi. O'simlik buta shaklida o'sib, bo'yi 1,5- 2,5 metr balandlikka yetadi. Qorag'at ko'chati ekilgan keyin 2 - yili hosilga kiradi. Bog'dorchilikda qorag'atning uch turidan keng foydalaniladi. Ular: qora qorag'at, qizil qorag'at va oltinsimon qorag'at turlaridir. Qorag'at tarkibida 7-12% qand, 1,5-3% organik kislotalar, 100-150 mg/% askorbin kislotasi va boshqa fiziologik aktiv moddalar mavjud. Qorag'at ko'plab o'simlik shoxlar hosil qilib o'suvchi va ko'p poyali buta hosil qiluvchi o'simlik hisoblanadi.

O'zbekistonda yetishtirilayotgan qorag'at navlari sortimentida yuqori hosildor, issiqqa,

sovuqqa, qurg'ochilikka va zamburug'li kasalliklarga chidamli, intensiv, rivojlanish jarayoni qisqa, mevalarning yuqori tovarliligi va universal qayta ishlash xususiyatlariga ega navlar yetarli darajada emas. O'zbekistonda qorag'at yetishtirish salmog'i past bo'lishiga qaramay oltinsimon qorag'at (*ribes aureum* pursh) turini yetishtirish bo'yicha imkoniyati yuqoridir.

Qorag'atning (*r. Nigrum*) turi (*r. Aureum*) turiga nisbatan ancha erta uyg'onishi va o'suv davrining ham birmuncha kechroq yakunlanishi bilan ajralib turadi. Bu esa qorag'atni ushbu turining birmuncha salqinsevar ekanligi bilan tushuntiriladi. Vaxolanki, oltinsimon qarog'at navlari biologik xususiyatlari jihatidan boshqa qorahatlaridan qolishaydi. O'zbekistonda yetishtirilayotgan oltinsimon qorag'at mevasining tarkibida 6,29 dan 13% gacha qand moddasi, 0,94 g dan 2,04% gacha kislotalar, 43,2 dan 187 mg% gacha S vitamini, 8,05 mg% gacha A provitaminlari va 1,5% pektin (quruq massa hisobida) moddalari mavjud bo'lsa, malina mevasining tarkibida shakar 5-10% gacha, organik kislotalar 0,5 dan 2,5% gacha, V1, V2, V6, V9, V12, S, D, Ye, RR, R, K vitaminlar, oshlovchi moddalar, bo'yovchi moddalar (1,5% gacha), fosfor, temir, tuzlar, pektin (0,5-0,9%) moddalari mavjud.

Akademik M.Mirzaev nomidagi bog'dorchilik, uzumchilik va vinochilik ilmiy tadqiqot institutida keng imkoniyatlar mavjud bo'lib, qorag'atning 20 dan ortiq nav va duragaylardan iborat kolleksiya va onalik bog'lari hozirgi kunda mavjud.

Toshkent va Andijon viloyati sharoitida oltinsimon qorag'atning erkin chatishtirish asosida avvalgi yillarda yaratilgan duragaylari hamda mahalliy va introduksiya qilingan malina navlari bosqichma-bosqich qimmatli xo'jalik belgi va xususiyatlari bo'yicha bo'yicha olib borilgan ilmiy tadqiqotlar natijasida lalmi tuproqlarga mos navlar ajratib olinadi. Oltinsimon qorag'at duragaylarining qurg'ochilikka chidamliligi laboratoriya sharoitida, kasallik va zararkunandalarga (un shudring, antraknoz, burib qolish kasalliklari, shira zararkunandasi) chidamliligi dala hamda

laboratoriya sharoitida o'rganilib eng yaxshi navlar ajratib olishga erishildi.

Ammo oltinsimon qorag'at turi bo'yi va ularning zararli organizmlardan zararlanishi bo'yicha deyarli ilmiy-tadqiqotlar olib borilmagan. O'rta Osiyo davlatlarida esa qorag'atning zararli organizmlar, ayniqsa virusli kasalliklari bo'yicha ilmiy-tadqiqotlar olib borilmagan.

Shuningdek, kasalliklarni diagnostika usullari, fitopotagenlar, kasallikni tarqalishi va kelib chiqish sabablari, iqtisodiy zarar me'zonlari bo'yicha ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmagan. Respublikamizning keskin kontinental iqlim sharoitidan kelib chiqqan holda virusli kasalliklarni aniqlash diagnostikasini zamonaviy usullarini yo'lga qo'yish, tarqatuvchi, PSR metodlaridan foydalanish hamda fitopatogen viruslarning molekulyar hususiyatlari o'rganilib gen banki yaratish bo'yicha tadqiqotlar olib borish dalbzor masala. O'simliklarni himoya qilish sohasini tubdan o'zgarishi davr talabidan kelib chiqib, kasalliklarni diagnostikasining eng yangi usullaridan foydalanish maqsadga muvofiq.

Shu bilan birga boshqa masala ham o'z yechimini topishga erishiladi, ya'ni respublikamizda mavjud qorag'at navlari orasida zararli organizmlarga nisbatan chidamli navlar taxlil etiladi va tanlab olinadi. Olingan xulosalar asosida zararkunanda va kasalliklarni oldini olish hamda qarshi kurash choralarini ishlab chiqish bo'yicha amaliy ishlar olib boriladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Aladina o.n. —Smorodina – Moskva, izd. —niola-press 2007.
2. Abdullaev r., Yagudina s. «Tomorqadagi rezavor mevalar», Tashkent, 1988



3. Kosimov, a. (2019). The study of heat resistance of golden currant (*ribes aureum pursh*) varieties. *International journal of research and development*, 4(112), 30-32.
4. Mavlyanovich, a. R., ravshanovna, a. K., & abdukodirovich, k. A. (2020). Studying the drought-resistance of berry plants. *International journal of psychosocial rehabilitation*, 24(6), 304-315.
5. Abdukodirovich, k. A. (2022). Influence of formation methods on plum yield and traditional fruit characteristics. *Youth, science, education: topical issues, achievements and innovations*, 1(1), 47-54.
6. Abdukodirovich, k. A. (2021). The effect of different methods of production on the productivity of child varieties and the commercial characteristics of fruits. *Web of scientist: international scientific research journal*, 2(11), 411-415.
7. Ravshanovna, a. K., & Abdukodirovich, k. A. (2021). Promising varieties of golden currant cultivated in the condition of uzbekistan.
8. Abdullaeva, k. R., kosimov, a., & tadjiboev, k. R. (2021). The growth and development of raspberry cultivars in the condition of uzbekistan. *Journalnx*, 7(05), 40-43.
9. Мадаминова, М., & Мирзайтова, М. (2022). АЙВА ОБЫКНОВЕННАЯ-ЮЖНЫЙ ДОЛГОЖИТЕЛЬ В НАШИХ САДАХ. *Новости образования: исследование в XXI веке*, 1(3), 643-647.
10. [Современные подходы прогнозирования вредных организмов в защите растений](#) МК Мирзайтова, Н Сиддикова *Экономика и социум*, 699-703
11. Мирзайтова, М. К. (2022). СОВРЕМЕННЫЕ ВЗГЛЯДЫ НА АГРАРНЫЕ ИННОВАЦИИ. *O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI*, 2(13), 391-394.